


Ernest XEMINGUEY

CHOL VA DENGIZ



Ernest XEMINGUEY

CHOL VA DENGIZ

Rus tilidan Ibrohim G'AFUROV tarjimasi



Yoshlar nashriyot uyi
Toshkent –2018

UO‘K 821.111(73)-31
KBK 84(AQSh)
X 40

Xeminguey, Ernest

Chol va dengiz [Matn] : roman / E. Xeminguey. -
Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. - 116 b.

“Insonni mag‘lubiyatga uchratish mumkin, biroq uni yengib bo‘lmaydi”, deydi Xeminguey asarlaridan birida. Ushbu asar ham insonni hech qachon yengib bo‘lmasligining yorqin dalolatnomasidir.

UO‘K 821.111(73)-31
KBK 84(AQSh)

ISBN 978-9943-5318-4-0

© Yoshlar nashriyot
uyi, 2018

CHOL VA DENGIZ

CHol qayiqda yolg'iz o'zi Golfstrimda baliq ov-lardi. Dengizga chiqayotganiga mana sak-son to'rt kun ham to'ldi, ammo hali bironta baliq tutganicha yo'q. Bola bilan u qirq kun bir-ga bo'ldi. Ha deganda qo'li quruq qaytaver-gach, ota-onasi unga endi cholning o'ta-ketgan Salao, ya'ni «o'lguday omadi yurishmagan odam» ekani-ni aytib, bundan buyon boshqa qayiqda dengizga chiqish kerakligini qulog'iga quydilar. Haqiqatan ham birinchi haftaning o'zidayoq bu qayiqda baliq desa arziguday uchta baliq tutib kelishdi. Deyarli har kuni cholning dengizdan quruq qaytayotgan-ligini ko'rib bola ich-ichidan ezilar edi. U cholning uskunalari, changak, garpun va machtaga o'ralgan yelkanlarini tashishga yordamlashgani qirg'oqqa kelardi. Dag'al matodan to'qilgan yelkan yumala-verib, ola-quroq bo'lib ketgan, o'rog'liq holda yak-soni chiqqan polkning yaloviga o'xshardi.

Chol oriq va holdan toygan, ensasini chuqur ajinlar tilib o'tgan, betlari esa quyosh nurining tropik dengiz yuzidan aks etib chiqishidan paydo bo'ladigan beozor teri rakining jigarrang dog'lari bilan qoplangan edi.

Dog'lar cho'zilib gardanigacha tushgan, yirik baliqlarni tortib olayotganda, chizimchalar o'yib yuborgan qo'llarida chuqur chandiqli izlari ko'ri-

nardi. Ammo bu izlar ichida yangisi yo‘q, hammasi ham uzoq suvsizlikdan qaqrab yotgan biyobon darzlari singari ko‘hna edi. Cholda nimaiki bor bo‘lsa, bari ham eski, faqat dengiz tusini olgan moviy, mardona odamlarnikiga xos quvnoq ko‘zlari bundan mustasno edi.

– Santyago, – dedi bola bog‘log‘liq qayiq turgan qirg‘oqdan yuqorilab ketgan yo‘l osha ko‘tarilisharkan, – endi yana sen bilan dengizga chiqishim mumkin. Hozir bir oz pul ishlab qo‘ydik.

Chol bolani baliq oviga o‘rgatgan, shuning uchun ham bola uni yaxshi ko‘rardi.

– Yo‘q, – dedi chol, – sen baxti chopgan qayiqda ov qilyapsan. O‘shanda qolganing ma‘qul.

– Esingda bormi, bir vaqtlar rosa sakson yetti kun dengizga chiqib, qup-quruq qaytuvding, keyin ikkalamiz ketma-ket uch hafta kuniga katta-katta baliq ushlab keltirganmiz.

– Esimda, – dedi chol, – sen menga ishonmaganingdan ketganing yo‘q, bilaman.

– Otam majbur qildi. O‘zim bo‘lsam, hali kichkinaman, shuning uchun ularning aytganini qilishim kerak.

– Bilaman, – dedi chol. – O‘zi ham shunday bo‘lishi kerak.

– Otam bo‘lsa, uncha ishonqiramaydi.

– Ha, – dedi chol. – Biz esa ishonamiz. To‘g‘rimi?

– Bo‘lmasa-chi. Istarsang, yur, seni Terrasda pivo bilan mehmon qilaman. Keyin asboblarni olib ketamiz.

– Hay, mayli, – dedi chol. – Baliqchi baliqchini siylamoqchi ekan, demak...

Ular Terrasga kelib o‘tirishdi. Ko‘pgina baliqchilar cholni mazax qilishar, ammo u buni ko‘ngli-

ga og'ir olmas edi. Yoshi ulg'ayibroq qolgan baliqchilar esa unga qarab xafa bo'lib ketishar, biroq sir boy bermas va oqim haqida, qarmoqni qancha chuqurlikka tashlashlari, ob-havo, nihoyat, dengizda nimalar ko'rishgani to'g'risida beozor gurunglashib o'tirishardi. Bugun ishi o'ngidan kelganlar ovdan allaqachon qaytishgan va o'lja marlinlarini tozalab, bir juft taxta ustiga ko'ndalang qo'yishgancha to'rtovlashib ularni baliq omboriga eltib topshirishgan edi. Bu yerdan baliqlarni refrijeratorenda Gavana bozoriga keltirib sotardilar.

Akula ovlab kelgan baliqchilar esa, ularni ko'rfazning narigi qirg'og'idagi zavodga topshirishardi.

U yerda akulalarni bloklarga osib qo'yib, jigarlarini sug'urib olishar, qanotlarini kesib, terisini shilishgandan so'ng, go'shtini tuzlashga pararak-parrak qilib kesishardi.

Shamol sharqdan esdi deguncha, o'zi bilan akula korxonasining qo'lansa hidini olib kelardi; ammo bugun hid deyarli sezilmas, chunki shamol shimoldan esa boshlab, ko'p o'tmay butunlay tingan edi.

Shuning uchun ham Terras serquyosh va so'lim edi.

– Santyago, – dedi bola.

– Xo'sh?– javob berdi chol. U stakanidagi pivoga tikilib o'tirarkan, uzoq o'tgan kunlarni eslardi.

– Ertaga senga sardin tutib keltirsam, maylimi?

– Ovora bo'lma. Yaxshisi, borib beysbol o'yna. Hali eshkak urishga kuchim yetadi. Rodjelio bor – to'r tashlab turadi.

– Yo'q, xo'p deya qolgin. Rost, sen bilan birga baliq ovlashim mumkin emas ekan, ul-bulingga yordamim tegsa deyman.

– Axir, sen meni pivo bilan siylayapsan-ku, – dedi chol. – Endi katta yigit bo‘lib qolding.

– Birinchi marta meni dengizga olib chiqqaningda yoshim nechada edi?

– Beshda. Qayiqqa tirik baliqni tortib olganimda, u sag‘al bo‘lmasa hamma narsani chilparchin qilib yuborayozgan va sen ham bazo‘r jon saqlab qolgan eding, esingdami?

– Esimda. U quyrug‘i bilan urib bankani sindirgan, sen bo‘lsang, uni to‘qmog‘ing bilan rosa do‘pposlagan eding. Meni qayiqning maydachuydalar yotgan burniga itqitib yuborgansan. Qayiq zirillab qaltirovdi, xuddi o‘tin chopganday to‘qmog‘ingni to‘q-to‘q ovozi eshilib turuvdi. Hammayoqni chuchmal qon hidi bosib ketgan edi. Bularning bari esimda.

– Rostdan ham bularning hammasi esingdami, yoki keyin senga aytib berganmidim?

– Meni o‘zing bilan dengizga olib chiqqan kuningdan tortib, hammasi esimda.

Chol oftobda qizarib ketgan, ishonuvchan va mehribon ko‘zlari bilan unga qaradi.

– Agar o‘z o‘g‘lim bo‘lganingda, hozir ham seni o‘ylab-netib o‘tirmay, dengizga olib chiqardim.

Ammo o‘z ota-onang bor, boz ustiga baxti chopgan qayiqda ov qilyapsan.

– Kel endi, senga sardin tutib keltiray, yo‘q demagin. Innaykeyin, to‘rt dona xo‘rak topib kelaman.

Qayerdan topishni o‘zim bilaman.

– Menda hali bugungilari shundoq turibdi. Ularni tuzlik yashikka solib qo‘ydim.

– Senga to‘rtta yangisini tutib kelaman.

– Bittasi ham yetadi, – e‘tiroz bildirdi chol.

U, shunday ham kelajakka na ishonchini va na orzu-omolini yo'qotmagan bo'lsa-da, hozir bu hislarning qalbida, go'yo dengizdan kishining qulfi-dilini ochadigan shabboda esgandagidek, mustahkamlana borardi,

– Ikkita, – dedi bola.

– Mayli, ikkita, – taslim bo'ldi chol. – Mabodo, sen ularni o'g'irlab olmaganmisan?

– Kerak bo'lsa, o'g'irlardim ham. Ammo ularni sotib olganman.

– Rahmat, – dedi chol.

Itoatkorlik ruhi qachondan boshlab o'z qalbidagi qo'nim topgani ustida bosh qotirib o'tirmoqlik uchun chol benihoya soddadil edi. Ammo u o'zining itoatgo'y bo'lib qolganini va bu itoatdan u o'z nomusi, insonlik qadr-qimmatini yo'qotmaganligini bilar edi.

– Agar oqim o'zgarmasa, ertaga kun yaxshi bo'ladi, – dedi chol.

– Qayerda ov qilmoqchisan?

– Qirg'oqdan uzoqroq joyda. Shamol o'zgaranda qaytaman. Tong otmasdan chiqaman.

– Sherigimni ham uzoqroqda ov qilishga ko'ndirish kerak bo'ladi. Agar qarmog'ingga juda katta baliq ilinib qolsa, biz yordamlashib yuboramiz.

– Uning qirg'oqdan ko'proq uzoqlashishga tobi-pobi yo'q.

– Shunaqa, – dedi bola. – Ammo men uning ko'zi o'tmaydigan biron narsani topishga harakat qilaman. Juda bo'lmasa, chaykalar bor-ku o'shanda uni tilla makrel tutamiz deb uzoqroqqa borishga ko'ndirish mumkin.

– Nahotki uning ko'zlari shu qadar ojiz bo'lib qolgan bo'lsa?

– Nimasini aytasan, ko‘r desa ham bo‘ladi.

– Qiziq. U, axir, hech vaqt toshbaqa ovlamas edi, shekilli. O‘zi shu toshbaqa ovi hammadan ham ko‘zni o‘tmas qilib qo‘yadi.

– Lekin sen shuncha yil toshbaqa deb, Moskit qirg‘og‘iga borsang ham, ko‘zlaring baribir, joyidaku.

– Menmi? Mening zuvalam o‘zi boshqacha uzilgan.

– Agar juda ham kattakon baliq duch kelib qolsa kuching yetarmikin?

– Yetsa kerak deb o‘ylayman. Hamma gap – epchillikda.

– Asboblarni uyga eltib qo‘yaylik-a. Keyin men to‘rni olib, sardin tutishga boraman.

Ular asboblarni qayiqdan tushirishdi. Chol yelkasiga machtani oldi, bola esa, jigarrang kalava ipdan chambarchas to‘qilgan qarmoq chilvirlari solingan yashik, changak va dastali garpunni ko‘tardi.

Qayiqda xo‘raklar solingan yashik hamda yirik baliqlarni suv betiga tortib chiqarilganda, ularni garang qilish uchun ishlatiladigan to‘qmoq qoldi. Cholning asbob-uskunalarini o‘g‘irlab ketish hech kimning xayoliga ham kelmasa kerak edi, ammo yelkan va og‘ir anjomlar tun shabnamidan nam tortib qolmasligi uchun ularni uyga olib borib qo‘ygan ma‘qul edi. Garchi chol o‘z narsalariga shu yerlik odamlardan birontasi ham ko‘z olaytirmasligiga amin bo‘lsa-da, harqalay, changak va garpunni yomon ko‘zdan xoliroq tutishga harakat qilardi.

Ular yo‘ldan cholning kulbasiga ko‘tarildilar va lang ochiq eshikdan ichkariga kirishdi. Chol mach-

ta va unga o'ralgan yelkanini devorga suyadi, bola esa, qo'lidagi narsalarni uning yoniga qo'ydi.

Machtaning uzunligi bu yerda ougua deb ataladigan qirol palmalarining yaproqlaridan qurilgan kulbaning bo'yiga teng edi. Kulbada karavot, stol, stul va quruq sahnga pistako'mir bilan obi yovg'on tayyorlash uchun o'yilgan o'choq bor edi. Uning tekislab quritilgan tolasimon yaproqlardan bo'lgan jigarrang devorlarini Tangri qalbi va Santa Maria del Cobrening rangdor oleagrafiya bilan ishlangan tasviri bezab turar edi. Bular unga marhum xotinidan qolgan edi. Qachonlardir devorda xotinining rangdor surati ham osig'liq turardi, ammo, keyin chol uni bekitib qo'ydi, chunki ko'zi tushsa juda-juda ezilib ketardi. Endi surat burchakdagi tokchada, toza ko'ylak ostida yotardi.

– Kechki ovqatga nimang bor? – so'radi bola.

– Bir tovoq sariq guruch bilan baliq. Yeysanmi?

– Yo'q, men uyda ovqatlanaman. Senga o't yoqib beraymi?

– Kerakmas. Keyinroq o'zim yoqaman. Balki, guruchni sovuqligicha yerman.

– To'rni olsam maylimi? – Bemalol.

To'r-po'r degan narsadan allaqachonoq nom-nishon qolmagan – uni qay mahal pullab yuborishgani bolaning yodida edi. Shunday bo'lsa ham, har ikkovlari buni bilmaganga solishar va o'zlarini go'yo cholda to'r borday tutishar edi. Mis tovoqda sariq guruch bilan baliq ham yo'q edi, bola buni ham bilardi.

– Sakson besh – baxt keltiruvchi raqam, – dedi chol. – Qalay, ertaga ming qadoqli baliq tutishimga ko'zing yetadimi?



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/uz/asar/3532> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/3532> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию
можно найти на сайте
<https://kitobxon.com/ru/asar/3532>